

O'YIN ILK YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATIDA YETAKCHI FAOLIYAT SIFATIDA

Baxriddinova Madina Sadriddin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika fakulteti Maktabgach ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Email: baxriddinovam60@gmail.com

Quvondiqova Nilufar Otabek qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Email : nilufarquvondiqova36@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17346891>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'yin faoliyati ilk yoshdagi bolalar rivojlanishida yetakchi o'rin tutishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. O'yinning bola psixik, ijtimoiy, jismoniy hamda nutqiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, o'yin jarayonida bolaning mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, his-tuyg'ularini ifodalash, atrof-muhitni anglash va ijodkorlik qobiliyatlari shakllanishi asoslab berilgan. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatini to'g'ri tashkil etish, pedagogning o'yin jarayonidagi yo'naltiruvchi roli va zamonaviy o'yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari o'yin faoliyatini bolalarning har tomonlama kamolotiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida qo'llash zarurligini asoslari

Kalit so'zlar: o'yin faoliyati, ilk yosh, yetakchi faoliyat, rivojlanish, maktabgacha ta'lim, pedagogik yondashuv, ijodkorlik.

Аннотация : В данной статье научно-теоретически проанализирована ведущая роль игровой деятельности в развитии детей раннего возраста. Раскрыто влияние игры на психическое, социальное, физическое и речевое развитие ребёнка. Также обосновано, что в процессе игры формируются такие качества, как самостоятельное мышление, коммуникативные навыки, способность выражать эмоции, познание окружающего мира и творческие способности. В статье подчёркивается значение правильной организации игровой деятельности в дошкольных образовательных учреждениях, направляющей роли педагога и применения современных игровых технологий. Результаты исследования доказывают необходимость использования игровой деятельности как важного педагогического средства, способствующего всестороннему развитию личности ребёнка.

Ключевые слова: игровая деятельность, ранний возраст, ведущая деятельность, развитие, дошкольное образование, педагогический подход, творчество.

Abstract : This article provides a scientific and theoretical analysis of the leading role of play activity in the development of young children. The influence of play on the child's mental, social, physical, and speech development is revealed. It is also substantiated that, through play, children develop such qualities as independent thinking, communication skills, the ability to express emotions, understanding of the surrounding world, and creativity. The article emphasizes the importance of properly organizing play activities in preschool educational institutions, the guiding role of the teacher, and the use of modern play technologies. The

research results justify the necessity of using play as an important pedagogical tool that contributes to the comprehensive development of a child's personality.

Keywords: play activity, early childhood, leading activity, development, preschool education, pedagogical approach, creativity

O'yin rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning asosiy faoliyatlaridan hisoblanadi. O'yin doim haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. O'yin ma'lum maqsadga ko'ra yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyliigi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida bolada o'quv faoliyati rivojlanadi. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishimiz kerak.

Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'matadi, onasi, bemor, shifokoi xullas hamina-haiiimaning o'rniga o'zi gapiradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi

Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yiinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P. Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish — ulami to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki ovz hayoti bilan yashaydi»

Lev Vygotskiy fikri: Ilk yoshdagi bolalar uchun " Yetakchi faoliyat " bo'lib, bola o'yin jarayonida o'zining ijtimoiy rollarini, xatti-harakatlarini va kelajak hayotga oid ko'nikmalarni egallaydi. O'yin bolaning rivojlanishida " Yaqin rivojlanish zonasi " ni kengaytiradi.

Maria Montessori fikri: Montessori tizimida o'yin va mashg'ulot tabiiy tarzda uyg'unlashadi. Unga ko'ra, bola " O'yin orqali mehnatni mashq qiladi " va shaxsiy mustaqillikni rivojlantiradi. Yana bir olim Jean Piaget fikricha: O'yin bolaning kognitiv rivojlanish jarayoning aksidir. Bolalar o'yin orqali atrof-muhitni o'rganadi va " Assimilyatsiya " hamda " Akkomodatsiya " jarayonlarini amalga oshiradi.

Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o'yin -bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengdoshlari bilan do'stlashadi. Ya.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalihat bergan edi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga yetishiga ta'sir ko'rsatishdin iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga,

kishilarga, o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (havas)lari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir.

O'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o'rmon, metro, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin. Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi. Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechilmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi.

Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir. O'yinda bola kishilarning axloqodob me'yorlarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi. Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadilar.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof muhitdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at, qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilish materiallar bilan ishlash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg'ulotlarga qaratilgan bo'ladi, bu esa bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotsky.L.S.(1978) Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
2. Piaget.J.(1962). Play, Dreams and Imitation in Childhood New York: Norton.
3. Montessori. M. (1967). The Absorbent Mind. Holt, Rinehart and Winston.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. - T., "Tafakkur bo'stoni", (1992)



5. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo.(2006)